



Volume 3, Issue 3(16), 2023

Journal of Physics and Technology Education



<https://phys-tech.jdpu.uz/>

Chief Editor:

Sharipov Shavkat Safarovich

Doctor of pedagogy, Professor, Rector of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Deputy Chief Editor:

Sodikov Khamid Makhmudovich

The Dean of the Faculty of Physics and Technological Education, dotsent

Orishev Jamshid Bahodirovich

Teacher of Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Members of the editorial board:

Ubaydullaev Sadulla, dotsent

Ismailov Tuychi Djabbarovich, dotsent

Kholmatov Pardaboy Karabaevich, dotsent

Umarov Rakhim Tojievich, dotsent

Murtazaev Melibek Zakirovich, dotsent

Abduraimov Sherali Saidkarimovich, dotsent

Taylanov Nizom, senior teacher

Tagaev Khojamberdi, senior teacher

Tugalov Farkhod Karshibayevich, dotsent

Alibaev Turgun Chindalievich, PhD

Yusupov Mukhammad Makhmudovich, PhD

Kurbonov Nuriddin Yaxyakulovich, PhD

Irmatov Fozil Muminovich, PhD

Editorial Representative:

Jamshid Orishev

Phone: +998974840479

e-mail:

jamshidorishev@gmail.com

ONLINE ELECTRONIK JOURNAL

“Fizika va texnologik ta’lim” jurnali

Журнал “Физико-технологического образование”

“Journal of Physics and Technology Education”

Indexed By:



Published By:

<https://phys-tech.jdpu.uz/>
Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

Nashr kuni: 2023-06-05

MUNDARIJA / CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

№	MUALLIFLAR/ AUTHORS/ АВТОРЫ	MAQOLA NOMI/ ARTICLE TITLE/ НАЗВАНИЕ СТАТЬИ	SAHIFALAR/ PAGES / СТРАНИЦЫ
1	<i>Umarov Rahim , Yusupov Kirmon</i>	<i>Sharq mutafakrlarining aqliy mehnat va tarbiya haqidagi qarashlari</i>	<i>5-9</i>
2	<i>Umarov Rahim, Isoqov Shohruh</i>	<i>Xalq hunarmandchiligi bo'yicha mashg'ulotlarni otkazish metodikasi</i>	<i>10-14</i>
3	<i>Abduvasiyev Sardor Bahrom o'g'li</i>	<i>Fizika fanini o'qitishda internet saytlaridan foydalanish imkoniyatlari</i>	<i>15-19</i>
4	<i>Abduvasiyev Sardor Bahrom o'g'li</i>	<i>Fizika fanida o'quv jarayonida elektron o'quv vositalaridan foydalanish metodikasi</i>	<i>20-23</i>
5	<i>Абдувасиев Садрор Баҳром ўғли</i>	<i>Альтернативные источники энергии-перспективы их использования и развития в узбекистане</i>	<i>24-27</i>
6	<i>Abduvasiyev Sardor Bahrom ugli</i>	<i>Methodology for using electronic learning tools in the educational process on the subject "Physics"</i>	<i>28-31</i>
7	<i>Igamqulova Zilola , Umirov Javlonbek</i>	<i>Oy tutilishi va uning shartlari</i>	<i>32-34</i>
8	<i>Ortiqova Ozoda Sharofovna</i>	<i>Modaning tarkibi, funksiyalari va rivojlanish qonuniyatlari</i>	<i>35-38</i>
9	<i>Ortiqova Ozoda Sharofovna</i>	<i>Jamiyat hayotida liboslarning o'rni</i>	<i>39-41</i>
10	<i>Yo'ldoshev Mirjalol , Allamuradov Husan, Rustamov Yoqubjon</i>	<i>Fotorezistorlarni dastur yordamida boshqarishni talabalarga o'rgatish</i>	<i>42-46</i>
11	<i>Orishev Jamshid, Majidova Hurriyat</i>	<i>O'quv mashg'ulotlarni tashkil etishda media ta'limning didaktik imkoniyatlari</i>	<i>47-51</i>
12	<i>Orishev Jamshid, O'rozov Bobur</i>	<i>Texnologiya fanini o'qitishda media ta'lim vositalaridan foydalanish</i>	<i>52-55</i>
13	<i>Rahimov Azizbek, Yaxshiboyevich</i>	<i>Savodxonlik elementlarini takomillashtirish - pedagogik muammo sifatida</i>	<i>56-59</i>
14	<i>Rahimov Azizbek, Parmanova Jumagul</i>	<i>Rassom asarlarida ayol timsoli</i>	<i>60-64</i>
15	<i>Rahimov Azizbek, Normatov Shuxrat</i>	<i>Milliy ruxdagi ganch o'ymakorligi</i>	<i>65-69</i>
16	<i>Ortiqova Ozoda, Rahmatva Shahlo</i>	<i>Korsetli libos tikish tarixi va rivojlanish bosqichlari</i>	<i>70-73</i>
17	<i>Alqorov Qodir Xolmatovich</i>	<i>o'quvchilarni texnik ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashda fizika bilan texnika fanlari</i>	<i>74-78</i>

		<i>aloqadorligi</i>	
18	<i>Alqorov Qodir, Yusupov Kermon</i>	<i>Ta’lim tizimida ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashning pedagogik muammolari</i>	79-82
19	<i>Тугалов Фарход, Мамадиёров Уралжон</i>	<i>Физика ўқитишида талабаларнинг илмий дунёқарашини шакллантиришида муаммоли таълим технологияларининг ўрни</i>	83-86
20	<i>Тугалов Фарход, Беркинова Чехроза</i>	<i>Фундаментал фанларнинг аҳамияти</i>	87-91
21	<i>G`ofurova Aziza Xidirnazar qizi</i>	<i>Oliy ta’limda ixtisoslik fanlarni o‘qitish jarayonini takomillashtirish</i>	92-95
22	<i>Ortiqova Ozoda, Nazirova Nafisa</i>	<i>Milliy liboslarda bezaklar va pardoz-andozlarning ishlatilishi</i>	96-100
23	<i>Doniyorova Shahnoza, Urinboyeva Gulsevar</i>	<i>To’quvchilik san’ati va uning o’ziga xosligi</i>	101-104
24	<i>Doniyorova Shahnoza, Urinboyeva Gulsevar</i>	<i>Kreativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish prinsiplari</i>	105-107

OLIV TA’LIMDA IXTISOSLIK FANLARNI O’QITISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

G’ofurova Aziza Xidirnazar qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
e-mail: gafurova.sojida@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada oliy ta’limda dizayn yo’nalish talabalariga kiyimlarni dizayn loyixalashni urgatish va kasbiy kompetensiyalari yuqori darajada shakllangan shaxsni tayyorlash maqsadida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy qilishni yangi imkoniyatlari ochib berilgan. Ta’limda raqamli texnologiyalarni qo’llanilishi talabalarning darsga bo’lgan munosabati va ilm olishga bo’lgan qiziqishini oshirishi hamda ularning yashirin qobiliyat va iste’dodlarni ro’yobga chiqarishiga yordam berishi xakida ma’lumotlar berilgan.*

Tayanch so’zlar: *3D texnologiyasi, kompyuter, raqamli texnologiya, ta’lim, pedagog, dizayn.*

XXI-asr raqamli texnologiyalardan foydalanish asri bo’lib so’nggi yillarda o’qitishning raqamli vositalaridan foydalanish ta’limning barcha turlarida va shakllarida keng qo’llanilmoqda. Ta’lim jarayonida raqamli vositalaridan foydalanish shartlari jamiyat hayotida sodir bo’layotgan o’zgarishlar, yangi axborot va kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan chambarchas bog’liq. Ammo raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy etish orqali jadal kirib borish va axborot makonida oldinga siljishni juda ehtiyotkorlik bilan amalga oshirish kerak, chunki "raqamlashtirish" faqat o’z-o’zidan rivojlanayotgan moda tendensiyasi sifatida maktab o’quvchisi, va talaba shaxsining shakllanishiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin.


Ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning maqsadi asosiy kompetensiyalari yuqori darajada shakllangan shaxsni tayyorlashga qaratilgan. Ta’lim faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish yangi imkoniyatlarni, ya’ni raqamli ma’lumotlarni uzatish, tarqatish va boshqarishning adekvat usullarini ochib berish, raqamli savodxonlikka asoslangan zarur kompetentsiyalarni rivojlantirish, zarur bilim va qarorlar qabul qilish ko’nikmalarini olish uchun hammaga teng foydalanish imkonini berish bilan birga raqamli iqtisodiyot sharoitida jahon mehnat bozorida oliy ta’lim bitiruvchilariga bo’lgan talabni ta’minlaydi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va dizayn yo’nalishi talabalariga ixtisos fanlarni

o‘qitishda 3D texnologiyalaridan foydalanishni ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha maxalliy va xorijiy ko‘plab olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Shu jumladan xorijiy ilmiy izlanuvchilardan E. E. Aleksandrovna, T. Chemodonovna, V.A.Obuxovets, T.N. Suvorova, N.A. Sablina, M.N.Marchenkolarning ilmiy tadqiqot ishlarida kompyuter grafikasidan foydalangan holda talabalarining dizayn qobiliyatlarini rivojlantirish xususiyatlari muhokama qilingan. Bo‘lajak kasb-ta’limi o‘qituvchilarining Axborot kommunikatsion tayyorgarligini kompyuterli loyixalash vositalari asosida takomillashtirish bo‘yicha ilmiy natijalarga erishgan. Urganilgan dissirtatsiya ishlarining barchasi haqiqatan ham dolzarbdir va ta’lim jarayonini butunlay yangicha qurishga qodir. Biroq, dizayn ta’limi sohasidagi ilmiy va uslubiy ishlarni tahlil qilgandan so‘ng, zamonaviy jamiyat taraqqiyoti talab qiladigan yangi shartlarni hisobga olgan holda dizaynerlarni tayyorlashning an’anaviy vazifalarida kompyuter va 3D modellashtirishni o‘qitishning yaxlit tizimini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar etarli emasligini ko‘ramiz. Shuningdek dizayn yo‘nalishning birorta fanida liboslarni 3D texnologiyasida loyixalashni o‘rgatish bo‘yicha mavzu kiritilmagan. Ixtisoslik fanlarining dasturlarini ishlab chiqishda kadrlar buyurtmachilarining talablari e’tiborga olinadi va kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta’lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta’lim muassasasi tomonidan aniqlanadi. Shundan kelib chiqib hozirda Dizayn yo‘nalishlariga Dizayn ob’ektini kompyuterda modellashtirish fani kiritilgan bo‘lib bu fan ko‘proq texnik sohada (loyihaviy faoliyatda) qo‘llanilishi yaxshi samara berishi amalda sinab ko‘rilgan.

Ta’limdagi yangi yondashuvlar o‘qituvchilar va talabalar uchun yangi muammolarni keltirib chiqarishiga qaramasdan pedagoglar ushbu raqamli texnologiyalarining o‘qitishdagi imkoniyatlarini tan olish bilan birga talabalar bilan ishlashda ulardan samarali foydalanish yo‘llarini izlamoqda. Eng yangi o‘qitish usullarini amaliyotga tatbiq etish maqsadida raqamli texnologiyalarni pedagoglar faoliyatida kengaytirish va talabalarning bilim darajalarini oshirish uchun ushbu yangi tendensiyalarni ko‘p yillar davomida ta’limda qo‘llanilgan bir qator an’anaviy o‘qitish usullari bilan uyg‘unlashtirish yuqori samara beradi.

Bunday ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun o‘quv jarayoniga qo‘shimcha ravishda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan faol va interaktiv texnologiyalarni qo‘llash zarurdir. Bularning barchasi o‘qitishni sifatini oshirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shunday qilib, o‘qitish jarayonini takomillashtirish o‘qituvchining innovatsion raqamli texnologiyalarni haqiqiy amaldagi o‘qitish metodlari bilan qanchalik darajada yaxshi birlashtirish

mumkinligiga bog‘liq bo‘lib, unda talabalar o‘zlarining fikrlash, fikr almashish qobiliyatlarini buzmasdan raqamli axborot manbalarining afzalliklaridan foydalanishni o‘rganadilar. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki liboslarni 3d vositalarida dizayn loyixalashni urgatishda o‘qitish jarayonini integratsiyalash dizaynerni kasbiy tayyorlashning muhim sharti bo‘lib bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi.



1- sxema. Dars jarayonini takomillashtirish

Bugungi kunda zamonaviy kompyuter texnologiyalari va didaktik vositalardan tashqari ta’lim muhiti xam muhim rol o‘ynaydi. Ushbu mavzu bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlarni urganish natijasida shuni aniqladikki kompyuter grafikasining maxsus dasturlari va ananaviy o‘qitish usullari integratsiyasi asosida dizayn loyihalash faoliyati uchun qobiliyatlarni rivojlantirish muammosining pedagogik ahamiyati bizni murakkab texnik va psixologik-pedagogik tadqiqotlar olib borishga olib keldi. Dizayn faoliyati talabalarning atrofdagi ob’ektiv muhitni idrok etish va o‘zgartirishda estetik ideallarini shakllantirishga, o‘z faoliyatini

loyihalashga ijodiy yondashishga, o‘zini doimiy rivojlanayotgan shaxs sifatida tushunishga yordam beradi. Ushbu makolada biz ba’zi nazariy masalalarni sarhisob qilish va raqamli texnologiyalarni o‘qitish va o‘qitish jarayoniga samarali integratsiya qilish uchun bir qator aniq yo‘nalishlarni shakllantirish orqali ushbu sohaga o‘z hissamizni qo‘shmoqchimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chomaeva L. M., Bostanov K. X. *Primenenie kompyuternyx texnologiy v obuchenii studentov xudojestvennomu Dizaynu*. Pedagogika. 285str
2. G‘ofurova A.X, G‘ofurova S.S, Abdujabbarova M.T. “Ayollar ko‘ylagi” № SAP 02142
3. G‘ofurova A.X. *Oliy ta’lim muassasalarida dizayn loyihalash fanini o‘qitishda 3D texnologiyasining maxsus dasturlarini qo‘llash*. Namangan 2022. 306 bet.
4. D.P. Xashimova, R.A. Parpieva *Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2020 yil*